

## **BOSHLANG‘ICH SINFLARDA SAVODXONLIKNI OSHIRISH USULLARI**

*Gayratova Zulfizar*

*Termiz davlat pedagogika instituti*

*2-kurs magisti*

**Annatatsiya:** Maqolada bugunning dolzar muammolarida biri bo‘lgan umumta’lim maktabining boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida savodxonlikni oshirish, bu boradagi izlanishlar haqida so‘z boradi. Chunki bugungi yoshlarni Istiqlol magfkurasi asosida tarbiyalash, Vatanga muhabbat ruhidagi qarashlarni singdirish, milliy qadriyatlar, an’analarga sadoqat ramzini shakllantirish g‘oyat dolzarb muammolardan biri ekanligiga diqqat qilingan va tahliliy yondoshgan.

**Kalit so‘zlar:** qarsh, intelekt, ijodiy jarayon, munosabat, ruhiyat, qadriyat, diqqat, tinglsh, tasdiqlash, mulohaza.

## **ГРАМОТНОСТЬ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ ПОДХОД К МЕТОДАМ УЛУЧШЕНИЯ**

Гайратова Зулфизар Гайрат кизи

Термезский государственный педагогический  
институт магистер 2-курса

### **Аннотация:**

В статье говорится о повышении грамотности учащихся начальных классов, что является одной из важнейших проблем современности, и об исследованиях в этой связи. Потому что воспитание современной молодежи на основе идеологии независимости, привитие взглядов в духе любви к Родине, формирование символа национальных ценностей, верности

традициям, является одной из наиболее актуальных проблем и поддается аналитическому подходу.

**Ключевые слова:** сопротивление, интеллект, творческий процесс, установка, менталитет, ценность, внимание, слушание, подтверждение, рефлексия.

## LITERACY IN PRIMARY GRADES APPROACH TO ENHANCEMENT METHODS

Gayratova Zulfizar Gayrat kizi  
Termiz State Pedagogical  
Institute 2nd year master

### **Annotation:**

The article talks about improving literacy among elementary school students, which is one of today's major problems, and about research in this regard. Because educating today's youth on the basis of the ideology of independence, instilling views in the spirit of love for the Motherland, forming a symbol of national values, loyalty to traditions, is one of the most urgent problems and has been analytically approached.

**Key words:** resistance, intellect, creative process, attitude, mentality, value, attention, listening, confirmation, reflection.

Asarlar davomida shakllangan milliy pedagogika tarixi taraqqiyoti, bugungi jarayondagi o'rni, o'qish va o'qitishdagi muammolar, boshlang'ich sinflarni o'qish va o'qitishda ilg'or tajribalarni qo'llash jarayonida mustaqil va sog'lom tafakkurga ega bo'lgan o'quvchilarni shakllantirish omillariga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Respublikada amalgam oshirilayotgan islohatlarning zamirida asosan inson va uning manfaatlarini ro'yobga chiqarishga qaratilganligi, bu jarajonda esa ta'limdagи islohatlarni yuzaga chiqarish zarurati ham mavjudligini alohida ta'kidlash joizdir [1, 56-bet]. Bugungi yoshlarni xalqimizning boy va intelektual merosi va

[www.pedagoglar.uz](http://www.pedagoglar.uz)

*15-to'plam fevral 2023*

umumbashariy qadriyatlar hamda zamonaviy fan texnika va texnologiyalarning yutuqlari asosida kadrlar tayyorlash har bir millat fidoisining asosiy vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda. Bu jarayonda boshlang'ich sinflardayoq bola tafakkurini, uning dunyo qarashini, mustaqil fikrash qobiliyatini shakllantirishga jiddiy e'tibor qaratish zarurligini to'g'ri va asosli anglashimiz imkonini berishini ham unutmaslik lozim.

A.Nasirov qayd qilganidek; “Asrlar davomida shakllangan milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz bir-biriga hamohang bo'lgan xalqning yillar davomida ma'lum bir ijtimoiy-siyosiy voqelik tufayli uzoqlashish holati ko'zga tashlanadi” [1, 11-bet].

Ayniqsa, boshlang'ich sinflardayoq, bolalar psixologiyasini, borliqni va olamni, insonni, o'zlikni anglashdagi ilk qadamlardanoq, johon sivilizatsiyasining markasilaridan biri bo'lgan bu zaminning farzandi ekanligini, uning yuksak darajadagi bilm olish ko'nikmalari esa vatanimizning kelajagini, taraqqiyotini ta'minlashga munosib hissa bo'lib qo'shilishini anglata olishning o'ziyoq bola tarbiyasini, uning tafakkutini yuksalishga bevosita xizmat qilishini teran mulohazalar asosida tushuntiraish va anglatish har bir ota-onaning va pedagog xodimning vazifasi ekanligini his etish zarurligini namoyon qilia olish bilan belgilanadi [2, 500-bet].

Shuning uchun ham bugungi kunga kelib xorijdagi eng ilg'or pedagogik texnologiyalarni o'rganish, uni milliy qadriyatlarimiz an'analarimizdan kelib chiqib joriy qilib boorish zarur. Bu jarayonga eng avvolo o'qituvchining o'zi tayyor bo'lishi, ana shundagina ilg'or pedagogic texnologiyalarni joriy etishgina emas, buni teran anglagan haolda qo'llash lozimdir.

To'g'ri, asrlar davomida shakllangan milliy qadriyatlar zamiridan kelib chiqib, mentaletetimizga xos jihatlarni qabul qilish, joriy etish jarayonida ham boshlang'ich sinf o'qituvchilarining faolligini talab etiladi [3,210-bet]. Axir yillar davomidagi tanazulning ham zamirida ta'lim tizmini izdan chiqishi, bu esa bugungi

kunda yanada teranroq sezilib qolganligini unitishga hech kimning ma'naviy haqqi yo'qligini bilishi, anglashi ham zarur. Shuning uchun ham, boshlang'ich siniflardanoq ilg'or pedagogic texnologiyalarni joriy etishgina ertamizni, kelajagimizni anglaydigan yoshlarni shakllanishiga xizmat qilishini unutmasligimiz kerak.

Maktab o'quvchini o'qish malakasi bilan qurollantirish bilan bir qatorda kitobni mustaqil o'qiy oladigan, uni tushunadigan, ma'lum bir mavzuga oid kitoblarni tanlay oladigan, gazeta va jurnallarni ham mustaqil o'qiydigan faol kitobxonni tarbiyalaydi. SHu jihatdan sinfdan tashqari o'qish (STO') tarbiyaning asosiy quroli sifatida xizmat qiladi, ko'p narsani bilishga havasni orttiradi. STO'ning maqsadi o'qish malakalarini takomillashtirish, kitob tanlay oladigan, muntazam kitob o'qiydigan, o'qilgan kitobni to'g'ri baholay oladigan ongli kitobxonni tarbiyalashdir. Bunday darslar 1-2-sinfda haftada 1 marta, 3-4-sinfda 2 haftada 1 marta o'tkazilib kelindi. Hozirgi dasturga ko'ra, bunday darslar 1-4-sinflarda 2 haftada bir marta o'tkaziladi. Savod o'rgatish jarayonida esa haftadagi oxirgi alifbe darsining 17-20 daqiqasi ajratiladi.

Sinfdan tashqari o'qish o'quv dasturi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, unda ko'zda tutilgan maqsad va vazifalarni amalga oshirishda yaqindan yordam beradi. Buning uchun o'quvchilarda kitobxonlik madaniyatini tarbiyalash, ularni oddiy kitobxondan ijodkor kitobxon darajasiga ko'tarish talab etiladi. O'quvchilarda kitobga havas uyg'otishda har bir bolaga yakka tartibda yondashish, shaxsiy qiziqishlarini hisobga olish zarur. Bolalarda kitob ustida ishlash malakasini shakllantirish ularda kitobxonlik madaniyatini tarbiyalashning muhim omilidir. Bolalarda ezgulikka muhabbat, yovuzlikka nafrat uyg'otish, ularning bog'lanishli nutqini o'stirish, adabiy-estetik tafakkurini yuksaltirish sinfdan tashqari o'qish darslarining ham tub mohiyatini tashkil etadi. STO' sinfda o'qish bilan uzviy bog'liq ravishda uyushtiriladi. Sinfda o'qish STO' uchun zarur bo'lgan o'qish malakalarini shakllantiradi, o'qigan asarni tushunishga o'rgatadi, lug'atni boyitadi. STO'

qiziqarli va o'ziga jalg etadigan faoliyat bo'lib, bolalarning bilim doirasini boyitadi, qiyoslash uchun material beradi. Sinfda o'qish – hayotga tayyorlash vositasi, sinfdan tashqari o'qish esa hayotning o'zidir. Hozirgi paytda boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun sinfdan tashqari o'qishga mo'ljallangan “Kitobim-oftobim” nomli qo'llanmalar ham chop etilgan.

Kitob tanlashda tarbiyaviy maqsad ko'zda tutiladi. Kitob tanlashda asarlar janri va mavzusining xilma-xilligi e'tiborga olinadi. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilar, asosan, hikoyalar, ertaklar, she'rlar, topishmoqlar, maqollarni o'qishga qiziqqanlari uchun shu janrdagi asarlar tanlansa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Kitobning o'quvchilar yoshi va saviyasiga mosligi hisobga olinadi. Kitob tanlashda o'quvchilarning shaxsiy qiziqishi va mustaqil o'qishi hisobga olinadi. Kitob tanlashda mavsumiy tamoyilga amal qilinadi. Umuman olganda, kitobni to'g'ri tanlash sinfdan tashqari o'qish muvaffaqiyatini ta'minlashning muhim shartidir [4,182-bet].

Har bir darsda o'qish uchun yangi kitob (asar)lar tavsiya qilinadi. Tavsiya qilish shakllari turlicha bo'lib, ular fikr almashuv, kitobni ko'rsatish, sinfda ko'rgazma tashkil etish, o'quvchilarni qiziqtirish uchun tavsiya qilinadigan kitobdan biror parchani o'qib berish, rasmlarni ko'rsatish yoki film namoyish etishdan iborat bo'lishi mumkin. Har bir darsda o'quvchilarga asarni yaxlit holda o'qitish mumkin. Agar asar hajmi kattaroq bo'lsa, bu ish ikki-uch dars davomida amalga oshiriladi. Bunda o'quvchilar o'zlari o'qigan kitobdan biror parchani ovoz chiqarib o'qib berishlari mumkin. Bu jarayonda ichda o'qishdan ham, she'r yodlashdan ham, rollarga bo'lib o'qishdan ham foydalaniladi.

Kitobni targ'ib qilish. O'quvchidaga tavsiya qilinadigan asarlar ro'yxati sinfga yoki maktabning maxsus joyiga osib qo'yiladi, ular vaqtiga vaqtiga bilan yangilab turiladi, to'ldiriladi, ko'rgazmalar tashkil qilinadi. O'qituvchi maxsus suhbatlar uyushtiradi. Yakka tartibdag'i yordam va kundalik tekshiruv. O'quvchilarning o'qigan kitoblari yuzasidan suhbat uyushtiriladi, o'qilgan kitoblar hisobga olinadi.

Adabiy ertaklar, viktorinalar, yozuvchilar bilan uchrashuvlar, adabiy ekskursiyalar uyushtiriladi, ular uchun maxsus tayyorgarlik ko'rildi. O'quvchilarning o'qigan kitoblari og'zaki tarzda ham hisobga olinadi: ular o'qiganlari yuzasidan sinfdan tashqari o'qish va sinfda o'qish darslarida, yakka tartibdagi suhbatlarda gapirib beradilar.

Bir qsator pedagog olimlarning alihohda qayd etishicha: “Ta’lim sohasining samarali faoliyatiga uning boshqarish tizimi hal etuvchi omil sifatida ta’sir ko’rsatadi. Shu o‘rinda milliy ta’lim sohasining boshqarishish tizmini takomillashtirishda ilg‘or mamlakatlarning buy o‘nalishdagi tajribalarini o‘rganib, ularning ijobiy tamonlaridan mamlakatimizda foydalanish hozirgi kunda muhim ahamiyat kasb etmoqda” [5, 4-bet]. Juda o‘rinli ta’kidlanganidek bu qarashlarning zamirida dinyo tajribasidan kelib chiqadigan tushunchalar mujassamlashgan.

Xullas, boshlang‘ich sinflarda bolalarni tafakkurini shakllantirish, sog‘lom tushunchalar asosida tarbiyalash har birimizning eng mas’uliyatli vazifamizdi. Shuning uchun har bir o‘quvchi fikr va tushunchalarini mustaqil qayd etishi, uning rag‘banlantirib boorish zarur. Shundagina biz yoshlarni o‘zligini taniydigan, o‘z oilasiga, Vataniga sodiq kishilar qilib taryalsh imkoniyatimiz kengayib boradi.

### **Adabiyotlar:**

- 1.Nasirov A. Badiiylik va hayotiy haqiqat. Monografiya. – Turkiya, Istanbul, -KESIT, 2019. – B. 139.
2. Nasirov A. Artistic chronotope interpretation in Odil Yakubov’s novels // Academicia: An Internatioonal multidisciplinary Research journal ISSN222-49-7137. Impact Faktor SJIF 2020: 7.13. Str. 498-501.
- 3.Nasirov A. Ard conflict in the novel “Rebellion and obedience” by Ukugbek Hamdam // Science, Research, Development // 32. // 2. Berlin 30.08. 2020 – 31. 08. “Diomond trading tour”. 2020. ISBN: 978-66401-65-5. 208-211 – str.

4.Nasirov A. Expression of spiritual experiences in art // International Jurnal on Integrated Education // Volume 3, Issue XI, November 2020. Impact Faktor 2020: 7.03. 181-182 str.

5.Xoshimov P., Oripov M. Buyuk Birtaniya ta'lim tizmini boshqarish xususiyatlari // Zamonaviy ta'lim. Ilmiy-amaliy ommabop jurnal. 2018-yil, 11-son, 4-6-betlar.